



2-ANGLIYA AFG‘ON URISHINI O‘RGANGAN JOHN KEEGAN HAYOTI VA IJODIGA BIR NAZAR

Samiyev Ozod Fazliddin O‘g‘li

Bux DU “Tarix yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha” magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Britaniyalik harbiy tarixchi John Keegan hayoti va ijodi, ilmiy faoliyatidagi yutug‘lari atroflicha tahlil qilinib uning: "The Face of Battle"(Jangning yuzi) (1976) asari tarixiy janglarni analitik ravishda o‘rganish va ularga zamonaviy nuqtai nazardan yondashuvni taqdim etadi. "A History of Warfare" (Urish tarixi)(1993) asarida urushning tarixiy, ijtimoiy, psixologik va madaniy jihatlarini keng qamrovda tahlil qiladi. Ushbu asar orqali muallif urushni faqat harbiy harakatlar nuqtai nazaridan emas, balki insoniyatning rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatishga harakat qiladi. "The Second World War: A New History"(Ikkinchi jahon urishi: yangi tarix) (1990) – asari Ikkinchi Jahon Urushi haqida yangi va chuqur tahlilni taqdim etadi. Ushbu asar urushning dastlabki sabablaridan tortib, uning global miqyosda qanday kechganigacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Olimning bu asarlaridan tashqari Britaniya Afg‘on urishida Britaniyaning mag‘lubiyat sabablari to‘g‘risidagi ilmiy ishlanmalari bizlarga tarixni yanada chuqurroq, aniqroq va yorqinroq tasvirlarda ko‘rishga imkon beradi. John Keeganning bu asarlari globallashayotgan dunyoda yosh tarixchilarni ilm olishga o‘z ustida shug‘ullanishiga undaydi.

Kalit so‘zlar: John Keegan, strategiya, Qandahor, tarix, visual, Afg‘oniston, etika, psixologiya.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются жизнь и деятельность британского военного историка Джона Кигана, его научные достижения. Его работа: «Лицо битвы» (1976) представляет собой аналитическое исследование исторических сражений и подход к ним с точки зрения современности. перспектива. «История войны» (1993) представляет собой всесторонний анализ исторических, социальных, психологических и культурных аспектов войны. Посредством этого произведения автор пытается показать роль и значение войны в развитии человечества не только с точки зрения военных действий. «Вторая мировая война: новая история» (1990) представляет собой новый и углубленный анализ Второй мировой войны. Эта работа охватывает события от первопричин войны до ее развития в глобальном масштабе. Помимо этих трудов ученого, научные разработки о причинах поражения Британии в англо-афганской кампании позволяют нам увидеть историю в более глубоких, ясных и ярких образах. Работы Джона Кигана побуждают молодых историков участвовать в обучении в глобализирующемся мире.

Ключевые слова: Джон Киган, стратегия, Кандагар, история, визуальное, Афганистан, этика, психология.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the life and work of the British military historian John Keegan, as well as his scientific achievements: "The Face of Battle" (1976) provides an analytical study of historical battles and an approach to them from a modern perspective. "A History of Warfare" (1993) provides a comprehensive analysis of the historical, social, psychological and cultural aspects of war. Through this work, the author tries to show the role and significance of war not only from the point of view of military operations, but also in the development of humanity. "The Second World War: A New History" (1990) provides a new and in-depth analysis of World War II. This work covers events from the initial causes of the war to how it unfolded on a global scale. In addition to these works, the scholar's scientific studies on the causes of Britain's defeat in the Afghan war allow us to see history in a deeper, clearer, and more vivid way. These works by John Keegan encourage young historians to engage in self-study in a globalizing world.

Keywords: John Keegan, strategy, Kandahar, history, visual, Afghanistan, ethics, psychology.



Kirish: Tarix — insoniyatning o‘tgan davrdagi voqealar, jarayonlar va tajribalarni o‘rganadigan fan. Tarixni o‘rganish orqali biz ajdodlarimizning hayoti, madaniyati, urf-odatlarini va qadriyatlarini tushunamiz. Tarixda yuz bergan voqealar, xato va muvaffaqiyatlar, insoniyatni shakllantirgan omillarni bilishimiz kelajak uchun muhim saboqlar beradi[1]. Tarixiy voqealar bizga nafaqat o‘tmishni, balki bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy holatlarni ham yaxshiroq tushinishga yordam beradi. Shuningdek, tarixiy tajribalarni o‘rganish orqali, kelajakda xatolardan qochish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Har bir xalqning tarixi uning imunitetini shakllantiradi va o‘zligini anglashda yordam beradi. Umuman olganda, tarix insoniyatning umumiy merosi bo‘lib, uni bilish har birimiz uchun zarurdir. Chunonchi: Angliya va Afg‘oniston o‘rtasidagi bir necha to‘qnashuvlar Britaniya harbiylarining o‘ziga xos strategiyalaridan foydalanishi Afg‘on xalqining o‘z vatani uchun jonidan vos kechishga tayyor ekanligidan xabar beradi.

Birinchi Angliya Afg‘on urushi (1839-1842) Britaniya imperiyasi va Afg‘oniston o‘rtasida bo‘lib o‘tgan harbiy to‘qnashuv bo‘lib. Geosiyosiy manfaatlar ya‘ni: Britaniya imperiyasi O‘rta Osiyo va Hindistonni himoya qilish maqsadida Afg‘onistonga kirishga qaror qiladi. Ular Rossiyaning O‘rta Osiyo va Hindistonga kirib borishining oldini olishni xohlagan edi. Yana bir maqsadi shundan iborat ediki: Afg‘onistonning ichki siyosati, Afg‘onistonda mavjud bo‘lgan ichki nizolar, o‘zaro qarama-qarshiliklar va Amir Shuja Durraniy boshchiligidagi pro-britaniya kuchining ta’siri bo‘lgan. Bu siyosiy jarayonlar natijasida Britaniya 1839-yilda Afg‘onistonga bostirib kirdi va Qandahorni egalladi. Ularning maqsadi Amir Shuja Durraniy hokimiyatga qaytarish edi, ammo afg‘on xalqi ularga qarshi kurash boshladi. 1841-yilga kelib, afg‘onlarning qarshiligi kuchayib ketdi va britan qo‘shinlari shaharni tark etishga majbur bo‘lishadi. 1842-yilda Britaniya qo‘shinlari Afg‘onistondan qochishga urinishadi, lekin bu jarayon juda og‘ir kechadi ko‘p sonli askarlar halok bo‘ladi. Qarshilik harakati boshchisi bo‘lgan Amir Dost Muhammad Khan hokimiyatga qaytadi va britan ta’sirini kamaytirishga harakat qiladi.

Ushbu urush tarixda "Bir kunlik yurish" deb ataladigan fojeali voqealar bilan eslanadi.

Ikkinchi Angliya-Afg‘on urushi (1878-1880) Britaniyaning Afg‘onistondagi ta’sirini yanada mustahkamlash maqsadida boshlangan bo‘lib, bu safar Britaniya hukumati Afg‘onistonning tashqi siyosatini nazorat qilishni xohlagan edi va bu maqsadda Afg‘onistonga yana harbiy kuch yubordi. Urush davomida Britaniya qo‘shinlari bir qancha jiddiy janglarda afg‘onlarga qarshi kurash olib boradi. Biroq, bu urush ham uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlay olmaydi va oxir-oqibat Britaniya Afg‘onistonda nazoratini yo‘qotadi. Natijada, ikkala urush ham Afg‘onistonning mustaqilligi uchun kurashini kuchaytirdi va Britaniya siyosatining muvaffaqiyatsizliklarini ko‘rsatib beradi. O‘z navbatida, bu voqealar Afg‘oniston tarixida muhim burilish nuqtasi bo‘lib qoladi va keyingi davrlarda mamlakatdagi mojarolarni yanada kuchaytiradi.

Angliya va Afg‘oniston o‘rtasidagi urushlarni ilmiy tadqiq qilgan Tzvetan Todorov, Eric Hobsbawm, Antony Beevor, Richard Overy, John Keegan olimlar bo‘lib, ularning ilmiy ishlari orqali biz ushbu murakkab voqealar to‘g‘risida kengroq tushunchaga ega bo‘lishimiz mumkin. Har bir olim o‘ziga xos yondashuvni taklif etadi va bu esa zaruriy ijtimoiy-siyosiy kontekstni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Biz ular orasidan quyida John Keegan hayoti va ijodini, ilmiy faoliyatda erishgan yutuqlarini ko‘rib o‘tamiz.

Asosiy qism: Jon Kigan (John Keegan) — 1934-yil 15-dekabrda Angliyaning London shahrida tug‘ilgan, 2012-yil 2-sentabrda vafot etgan Britaniyalik tarixchi, harbiy tarixshunos va muallif. U asosan harbiy tarix va strategiya sohasidagi ishlari bilan tanilgan. Jon Kigan Eton kollejida tehsil olgan va keyinchalik Oksford universitetida ta’limni davom ettirgan va u yerda tarix fanini o‘rganib, bakalavr darajasini olganidan so‘ng, o‘zining ilmiy faoliyatini davom ettirgan. U Britaniya armiyasida xizmat qilgan va bu tajribasi uning harbiy tarixga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirgan. Kiganing ilmiy faoliyati ko‘plab muhim asarlarni o‘z ichiga oladi. U harbiy tarixni keng qamrovli nuqtai nazardan yoritishga intildi. Uning eng mashhur asarlari quyidagilar:



"The Face of Battle"(Jangning yuzi) (1976) asari tarixiy janglarni analitik ravishda o'rganish va ularga zamonaviy nuqtai nazardan yondashuvni taqdim etadi. Ushbu kitobda muallif, asosan, uchta tarixiy jang — "Azincourt", "Waterloo", va "Somme" — ni chuqur tahlil qiladi[2]. Kigan janglar jarayoni, harbiy strategiyalar va taktikalarni o'rganish bilan birga, oddiy askarlarning tajribalari va ularning jangdagi roli haqida gapiradi. U jang maydonidagi sharoitlarni, psixologiyani va yuklamalarni chuqur o'rganadi. Har bir jangning tarixiy fonini taqdim etib, muallif ularning siyosiy va ijtimoiy kontekstini ham ko'rib chiqadi. Bu orqali o'quvchilarga janglarning qanday sabablar asosida yuz berganini tushunishga yordam beradi. Kigan janglarni yuqori darajadagi strategik qarorlar nuqtai nazaridan emas, balki oddiy askarlarning ko'zlari bilan tasvirlaydi. Bu uslub o'quvchilarga harakatlar va qarorlar qanday qabul qilinganini yanada yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi. Yozuvchi urush tarixi haqidagi an'anaviy fikrlarni tanqid qilib, ularni zamonaviy yondashuvlar bilan solishtiradi. "The Face of Battle" asarning yozilish uslubi ilmiy bo'lishi bilan birga, juda hayajonli va o'qilishi osondir. U voqealarni jonli tasvirlanoshi bilan ajralib turadi. "The Face of Battle" asari nafaqat harbiy tarixchilar uchun, balki kengroq auditoriya uchun ham qiziqarli va foydali bo'lgan muhim asardir. Kiganing yondashuvi janglar haqida chuqurroq tushuncha beribgina qolmay, balki insoniyat tarixidagi urushning murakkabligini ham ko'rsatadi. "A History of Warfare" (Urush tarixi)(1993) – asarida urushning tarixiy, ijtimoiy, psixologik va madaniy jihatlarini keng qamrovda tahlil qiladi. Ushbu asar orqali muallif urushni faqat harbiy harakatlar nuqtai nazaridan emas, balki insoniyatning rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatishga harakat qiladi. Asarning asosiy g'oyasi: Urush– insoniyatning ajralmas qismi. Urushlar shunchaki kuch bilan hal etiladigan mojarolar sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlar sifatida tahlil qilinadi[3]. Asarda harbiy strategiya va taktikalar quyidagicha izohlanib, turli davrlardagi urush strategiyalarining qanday o'zgarishi va rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Yozuvchi klassik

davrlar, o'rta asrlar va zamonaviy davrda harbiy taktikalar va strategiyalar qanday shakllanganini batafsil bayon etadi. John Keegan urushlarning iqtisodiyotga, siyosatga, madaniyatga bo'lgan ta'sirini tahlil qilgan holda, urushlarning inson hayotidagi roli haqida fikr yuritadi. "A History of Warfare" asar urush davrida askarlarning psixologik jihatlarini ham o'z ichiga oladi. Muallif urush bilan bog'liq axloqiy masalalarni ham ko'taradi. Urushning adolatli yoki adolatsizligi haqida munozara olib boradi. Asarda harbiy texnologiyaning rivojlanishi hamda uning urushlarga ta'siri haqida gap boradi. Harbiy texnologiyalar qanday qilib janglarni o'zgartirganligi tahlil qilinadi. Ushbu asarning mazmuni murakkab bo'lishiga qaramay, u o'z vaqtida juda ko'p e'tibor qozongan va tarixshunoslik sohasida muhim manba sifatida tanilgan.

"The Second World War: A New History"(Ikkinchi jahon urushi: yangi tarix) (1990)– asari Ikkinchi Jahon Urushi haqida yangi va chuqur tahlilni taqdim etadi. Ushbu asar urushning dastlabki sabablaridan tortib, uning global miqyosda qanday kechganigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Asarning asosiy jihatlarini shundaki, urushni harbiy strategiya, siyosat va insoniyat tarixi nuqtai nazaridan analiz qilinadi. U urushning keng ko'lamli sabablarini va oqibatlarini o'rganadi. Muallif urush davomida ishlatilgan turli harbiy taktikalar va strategiyalarni batafsil tahlil qiladi[4]. U janglarda qatnashgan mamlakatlarning harbiy rahbarlari va ularning qarorlarini ham ko'rib chiqadi. Shu bilan birga John Keegan inson omillariga e'tibor qaratib, urushdagi odamlarning hissiyotlari, motivatsiyalari va tajribalari haqida yozadi. Asar o'qish jarayonida o'quvchilarga urushning shaxsiy tomoni haqida chuqurroq tushuncha beriladi. "The Second World War: A New History" asarda urushning dunyo bo'yicha ta'siri va uning keyingi davrlarda qanday natijalarga olib kelgani haqida fikr yuritiladi.

"The First World War: A New Illustrated History"(Birinchi jahon urushi: yangi tasvirlangan tarix) (2000) - asari Birinchi Jahon Urushi haqida keng qamrovli va ilhomlantiruvchi tahlil taqdim etadi. Ushbu kitobda urushning sabablari, rivojlanishi va oqibatlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. John Keegan,



tarixchi sifatida, urushni nafaqat strategik va harbiy nuqtai nazardan, balki insoniy tajribalar va ijtimoiy o'zgarishlar nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqadi[5]. U urushda ishtirok etgan insonlarni, ularning his-tuyg'ularini va urushning kundalik hayotga ta'sirini yoritishga harakat qiladi. Asarda ko'plab rasmlar, xaritalar va boshqa vizual materiallar mavjud bo'lib, bu o'qiydiganlarga voqealarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Keeganning yondashuvi tarixiy voqealarni shunchaki faktlar orqali emas, balki ularning haqiqiy mohiyatini ochib berish orqali tushuntirishga qaratilgan.

Xulosa: Jon Kigan nafaqat akademik sohada muvaffaqiyatga erishdi, balki umumxalq

o'quvchilari orasida ham mashhurlik kasb etdi. U ko'plab maqolalar va esse yozgan bo'lib, ular orqali harbiy tarixni keng auditoriya uchun yanada tushunarli qilib taqdim etdi. Uning ishlari ko'plab tillarga tarjima qilingan va bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba sifatida qaraladi. Jon Kigan hayoti va ilmiy faoliyati harbiy tarixni yangi nuqtai nazardan qarashga undaydi. U o'zining asarlari orqali urushlarning insoniyat tarixi va madaniyatidagi o'rnini chuqur anglashga yordam beradi. Uning yutuqlari va fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zME. Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent. 2016, 127-bet
2. John Keegan. The Face of Battle. Hodder & Stoughton. -London. 1976, 3- bet
3. John Keegan. A History of Warfare. Random House UK. -London 1993, 2-bet
4. John Keegan. The Second World War: A New History. Macmillan Publishers. London. -1990, 7-bet
5. John Keegan. The First World War: A New Illustrated History. . Macmillan Publishers. London. -2000, 4-bet